IQTISODIY JARAYONLARNI BOSHQARISHDA OPTIMALLASHTIRISH MODELLARI VA ULARNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI.....	1108
Ibragimov Nodir Nusriddinovich	
MARKETINGDAGI ISTE'MOLCHILAR MOTIVATSIYASIDA NAFLILIK NAZARIYALARIDAN FOYDALANISH.....	1113
Jalilov Jamshid G'anijonovich	
AHOLI ZICH HUDUDLARDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHINING HOZIRGI HOLATI TAHLILI ANDIJON VILOYAT MISOLIDA.....	1119
Karimov Abdusamat Ismonovich, Bo'stonova Nilufar Abdusmatovna	
CHAKANA SAVDO KORXONALARIDA ISTE'MOLCHILAR XULQ-ATVORINING SAVDO HAJMIGA TA'SIRINING TAHLILI.....	1125
Haydarova Mohichehra Xurram qizi	
BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA AXBOROT-KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALARNING O'RNI.....	1131
Haydarov Husanboy Ahmadjon o'g'li	
DAVLAT QARZINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI: PANEL MA'LUMOTLAR TAHLILI.....	1135
Sanakulova B. R., Jamolov M.M.	
AUDITNING XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA HISOBOT SANASIDAN KEYINGI HODISALAR AUDITI.....	1142
Muydinov Erkin Djамaldinovich	
AUTSORSING FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARI.....	1148
Xamidov Anis Choriyevich	
BIOCHEMICAL CHANGES IN THE BODY DURING THE PERIOD OF FATIGUE AND REST AFTER WORK FOR ATHLETES.....	1153
Yoldasheva Roila Jumaevna, Ruyobova Shakhlo Anvar qizi	
KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHGA OID XORIJIY MAMLAKATLARNING ILG'OR NAZARIYALARI VA YONDASHUVLARI.....	1159
Muradova Nazira Raximjanovna	
XORAZMDA IQTISODIY BARQARORLIK MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1165
Xudayorova Munira Omonboy qizi	
QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA INNOVATSION BUXGALTERIYA HISOBINI JORIY ETISH.....	1170
Mirzayev Komiljon Abdullajonovich	
SOLIQ MA'MURCHILIGI MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI SOLIQ SOLISH BAZASINI KENGAYTIRISH IMKONIYATLARI.....	1175
Jononmirzayeva Dilafruz Ilhom qizi	
ИЗБАВЛЕНИЕ ОТ ИНФЛЯЦИИ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ЦИФРОВЫХ МЕТОДОВ И МАТЕМАТИЧЕСКИХ МОДЕЛЕЙ В СФЕРЕ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ.....	1180
Абидов А.А., Ахраров Б.С., Паязов М.М., Ахмедов А.М.	
O'ZBEKISTONDA YOSHLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISH VA INNOVATSION BIZNES TASHABBUSLARINI QO'LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMLARI.....	1185
Karimova Mavjuda Boxodirovna	
INVESTITSIYA MUHITINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI YUQORI TEXNOLOGIYALI TARMOQLARNI RIVOJLANTIRISH VA IQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH.....	1189
Raxmatova Nargizaxon A'zamxonovna	



O'ZBEKISTONDA ELEKTRON PULGA O'TISH ISTIQBOLLARI, KORRUPSIYA VA YASHIRIN IQTISODIYOTGA QARSHI KURASHISHDA KUTILAYOTGAN SAMARADORLIK	1195
Pulatov Dilshod Xaqberdiyevich, Abdiyev Mansur Musurmonovich	
KICHIK BIZNES TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI IQTISODIY XAVFSIZLIGI MASALALARI	1202
Anafiyayev Abdurashid Mamasidiqovich	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA ISHLAB CHIQRISH XARAJATLARI HISOBINI AVTOMATLASHTIRISH	1206
Xusinov Ibragim Ismoilovich	
ЭВОЛЮЦИЯ ТОРГОВОЙ ПОЛИТИКИ ТУРЦИИ В КОНТЕКСТЕ ИНТЕГРАЦИИ В ГЛОБАЛЬНЫЕ ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ЦЕПОЧКИ	1210
Солиев Абдумаджид Джабборович	
MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI DIREKTORINING MOLIVAVIY SAVODXONLIGI: NAZARIYA VA AMALIYOTI.....	1215
Abdullayeva Nafisa Shavkatovna, Boymuradov Normurod Abdusodikovich	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIGA MOLIVAVIY HIMOLA XIZMATLARI KO'RSATISHNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	1220
G'aniyeva Nozima Alijon qizi	
ОЦЕНКА ПОТЕНЦИАЛА КЛАСТЕРИЗАЦИИ КОКОНОПЕРЕРАБАТЫВАЮЩИХ ПРЕДПРИЯТИЙ НА ШЕЛКОВОМ ОТРАСЛИ УЗБЕКИСТАНА.....	1225
Ходжиматов Равшанбек Расулжанович	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA ISH BILAN BANDLIK SHAKLLANISHINING XORIY TAJRIBASI	1231
Abdusaidov Akmal Abduvaliyevich	
TEMIR YO'L TRANSPORTI KORXONALARIDA MOLIVAVIY-IQTISODIY BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH UCHUN KONTROLLING VOSITALARINI JORIY ETISH.....	1236
Kayumov Zafarbek Odil o'g'li	
BANK HR JARAYONLARIDA SUN'IY INTELLEKTNI QO'LLASH IMKONIYATLARI.....	1243
D. Djabbarova	
MEHNAT BOZORIDA NORASMIY BANDLIKNI QISQARTIRISH MEXANIZMLARI	1247
Mirzakarimova Muyassarxon Muminovna	
IJTIMOY XIZMATLAR TIZIMIDA DAVLAT VA NODAVLAT SEKTORINING O'ZARO ALOQASI HAMDA XORIYIY TAJRIBA TAHLILI.....	1251
Berdiyeva Nafisa Qahramonovna	
ПРИМЕНЕНИЕ КОНТРОЛЛИНГА В ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СИСТЕМЕ УПРАВЛЕНИЯ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ТРАНСПОРТА	1257
Каямов Зафарбек Одил угли	
BILVOSITA SOLIQLAR HISOBINI TASHKIL ETISHDA SOLIQ NAZORATINING AHAMIYATI	1263
Djalilov Rahmonkul Hamidovich	
INVESTITSION FAOLIYATNING IQTISODIY MOHIYATI VA UNING SANOAT RIVOJLANISHIDAGI O'RNI	1268
Yuldoshev Sobir Fayzullayevich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIYOTINING TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA AHOLI DAROMADLARINING TAQSIMOT TAHLILI.....	1272
Bayxonov Baxodirjon Tursunbayevich	
TIJORAT BANKLARIDA RAQAMLI MARKETINGNI QO'LLASHNING XORIY TAJRIBASI.....	1277
Raxmatova Shaxnoza Rustamovna, Ochilova Dilnoza Ismoil qizi	
ФОРМИРОВАНИЯ УСТОЙЧИВОЙ ЗАНЯТОСТИ В ПРОМЫШЛЕННОСТИ В УСЛОВИЯХ ТЕХНОЛОГИЧЕСКИХ ПРЕОБРАЗОВАНИЙ	1283
Б.С. Разакова	
ZAMONAVIY TURISTIK KLASSTERLARNI BOSHQARISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	1289
Azim Pulatov	
O'ZBEKISTONDA YOSHLAR BANDLIGINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI VA DAVLAT SIYOSATINING SAMARADORLIGI	1296
Qodirov Baxodirjon Shuhratovich	



YASHIL TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA SANOAT KORXONALARINING ISHLAB CHIQUARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING AHAMIYATI	1302
Ergashev Sanjarbek Sobirjon o'g'li	
ONLAYN TA'LIM PLATFORMALARI INTERAKTIV CHATBOTLARI SAMARADORLIGINI KOMPLEKS BAHOLASH	1306
Zaripova Mukaddas Djumayozovna, Yusupova Asila Xidirqul qizi	
TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARINING MOLIVAVIY BARQARORLIGINI BAHOLASHNING TAKOMILLASHTIRILGAN USLUBIYOTI	1313
Abdullayeva Sevaraxon Xasanovna	
ZARAFSHON MINTAQASI HUDUDLARIDA IQTISODIY MUTANOSIBLIKKA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI VA ULARNING O'ZGARISH TENDENSIYALARI	1320
Murtazayev Isabek Bazarbayevich	
O'ZBEKISTONDA AHOLI TURMUSH DARAJASINI YAXSHILASHNI MOLIVAVIY MANBALARI	1327
Mansurov Mansur Alisherovich, Xolbekova Dilobarxon Rasuljon qizi	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MONETAR SIYOSATNING TRANSMISSIYA MEXANIZMLARI SAMARADORLIGI	1330
Boltayeva Nilufar Shavkat qizi	
HUDUDIIY TURIZM RIVOJLANISHIDA BARQAROR BOSHQARUV STRATEGIYALARINI ISHLAB CHIQISH	1336
Barakayev Elbekjon Abdulla o'g'li	
O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK MEXANIZMINI JORIY ETISH	1343
Yuldashev Kodirjon Mamadjanovich	
ILG'OR XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASIDA BOSHQARUV XODIMLARI QOBILIYATLARIDAN FOYDALANISH ORQALI KORXONA SALOHİYATINI YUKSALTIRISH YO'LLARI	1348
Ayubxon Qutbiddinov Bosit o'g'li	
INTEGRATSIYALASHGAN XARAJATLAR TAHLILI: ISHLAB CHIQUARISH VA LOGISTIKA XARAJATLARINING MAHSULOT TANNARXIGA TA'SIRI	1353
Zokirjonov Asadbek Otabek o'g'li, Xashimova Zuhraxon Kahramonovna	
QASHQADARYO VILOYATI SANOATINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASINING ASOSIY YO'NALISHLARI VA ULARNI EKONOMETRIK MODELLAR YORDAMIDA BAHOLASH	1358
Raxmatullayev Doston Asad o'g'li	
MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA BOLALAR TA'MINOTIGA OTA-ONALAR TOMONIDAN HAQ TO'LASH VA UNDAN FOYDALANISH TARTIBINING BUXGALTERIYA HISOBI	1361
Ro'ziboyev Oybek Baxromovich	
KICHIK BIZNESNING HUDUDIIY ISH BILAN BANDLIKKA TA'SIRI	1367
Qulmatov Alimjan Abdulloyevich	
INDUSTRIYA 4.0 SHAROITIDA KASBLAR TARKIBI TUZILMASI VA KOMPETENSIYALAR TRANSFORMATSIYASI	1371
Mirzakarimova Muyassarxon Muminovna	
RAQAMLI IDENTIFIKATSIYA (E-ID) TIZIMINING G'AZNACHILIK OPERATSIYALARIDA QO'LLANISH ISTIQBOLLARI	1375
Raximov Shaxzod Maxsudjanovich	
IQTISODIYOTNI RAQAMLI TRANSFORMATSIYALASH SHAROITIDA AVTOMOBIL SANOATI KORXONALARINING INVESTITION FAOLIYATINI STRATEGIK RIVOJLANTIRISH	1380
Kasimova Nozima Omilovna	
METHODOLOGY FOR ASSESSING THE EFFECTIVE PERFORMANCE OF AN INDUSTRIAL ENTERPRISE IN THE CONTEXT OF INDUSTRY 4.0	1384
Kudaynazarova Dilnaz Koshkarbaevna	
TEACHING PROGRAMMING COLLABORATIVELY THROUGH GOOGLE COLAB AND GITHUB INTEGRATION	1388
Saidova Difuza Ergashovna	
O'ZBEKISTONDA BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHNING ASOSIY YO'NALISHLARI	1392
Djumayev Zayniddin Axmedovich	



ЦИФРОВАЯ МОДЕРНИЗАЦИЯ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ УЗБЕКИСТАНА: КОНЦЕПТУАЛЬНАЯ ОСНОВА И КЛЮЧЕВЫЕ ОРИЕНТИРЫ	1397
Киличева Феруза Бешимовна	
ТРАНСФОРМАЦИЯ КОНСТИТУЦИОННЫХ НОРМ О СОБСТВЕННОСТИ И ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СВОБОДЕ В УЗБЕКИСТАНА В УСЛОВИЯХ СОЦИАЛЬНОГО ГОСУДАРСТВА	1401
Абдуллаева Мавлюда Садыковна	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNI INNOVATSION IQTISODIYOTDA QO'LLAB-QUVVATLASH STRATEGIYALARI.....	1407
Mirzaaxmedov Nodirbek Shavkatovich	
KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI TAHLIL QILISH VA MARKETING STRATEGIYASINI TANLASH	1414
Yoqubjonova Dildora Timur qizi	
TURISTIK XIZMATLAR BOZORINING XUSUSIYATLARI VA BRENDLASH IMKONIYATLARI	1420
Yusupova Moxinur Farxod qizi	
TA'LIM TASHKILOTLARIDA MOLIYAVIY AKTIVLARNI BOSHQARISH.....	1428
Meliboyev Ibroxim Mavlon o'g'li	
SOLIQ NAZORATINI TASHKIL ETISHDA XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKISTONGA TATBIQ ETISH IMKONIYATLARI.....	1432
Kodirov Aqliddin Hakim o'g'li	
AVTOMOBIL SAVDOSIDA ZAMONAVIY MARKETING KONSEPSIYALARINING QO'LLANILISHI	1437
Adamboyev Abror Akrom o'g'li, Akramov T.A.	



AVTOMOBIL SAVDOSIDA ZAMONAVIY MARKETING KONSEPSIYALARINING QO'LLANILISHI



Adamboyev Abror Akrom o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

2-kurs magistratura talabasi

ORCID: 0009-0002-5341-551X

Email: Abroradamboyev02@gmail.com

Ilmiy rahbar:

Akramov T.A.

Professor

Annotatsiya. Ushbu maqolada jadal o'zgarayotgan avtomobil bozorida korxonalar tomonidan zamonaviy marketing konsepsiyalarini qo'llashning mohiyati, afzalliklari va amaliy jihatlari ilmiy jihatdan yoritiladi. Tadqiqotda mijozga yo'naltirilgan marketing, raqamli marketing texnologiyalari, innovatsion sotuv strategiyalari hamda brend qiymatini boshqarish kabi zamonaviy konsepsiyalarning avtomobil savdosidagi roli tahlil qilinadi. Olingan natijalar ushbu sohada raqobatbardoshlikni oshirish, bozor ulushini kengaytirish va mijozlar sadoqatini mustahkamlash imkoniyatlarini namoyish etadi.

Kalit so'zlar: avtomobil bozori, zamonaviy marketing konsepsiyalari, raqamli marketing, innovatsion sotuv usullari, onlayn savdo, virtual test-drayv, 3D konfiguratorlar, CRM tizimlari, kontent marketing, SEO va SMM.

Abstract. This article scientifically examines the essence, advantages, and practical aspects of applying modern marketing concepts by companies operating in the rapidly changing automotive market. The study analyzes the role of customer-oriented marketing, digital marketing technologies, innovative sales strategies, and brand equity management in automotive sales. The findings demonstrate opportunities for increasing competitiveness, expanding market share, and strengthening customer loyalty within the industry.

Key words: automotive market, modern marketing concepts, digital marketing, innovative sales methods, online sales, virtual test drive, 3D configurators, CRM systems, content marketing, SEO and SMM.

Аннотация. В данной статье научно раскрываются сущность, преимущества и практические аспекты применения современных маркетинговых концепций предприятиями в стремительно меняющемся автомобильном рынке. В исследовании анализируются роль ориентированного на клиента маркетинга, цифровых маркетинговых технологий, инновационных стратегий продаж, а также управление брендовым капиталом в процессе реализации автомобилей. Полученные результаты демонстрируют возможности повышения конкурентоспособности, расширения доли рынка и укрепления клиентской лояльности в данной сфере.

Ключевые слова: автомобильный рынок, современные маркетинговые концепции, цифровой маркетинг, инновационные методы продаж, онлайн-продажи, виртуальный тест-драйв, 3D-конфигураторы, CRM-системы, контент-маркетинг, SEO и SMM.



KIRISH

Bugungi globallashuv va tezkor raqamli transformatsiya sharoitida avtomobil sanoati jahondagi eng dinamik rivojlanayotgan va yuqori raqobatga ega tarmoqlardan biri sifatida ajralib turadi. So'nggi yillarda iqtisodiy integratsiya jarayonlari, ishlab chiqarish texnologiyalarining modernizatsiyasi, ekologik talablarning kuchayishi va iste'molchilarning xarid qilish xulq-atvoridagi o'zgarishlar avtomobil bozorida tub o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Raqobatning kuchayishi natijasida kompaniyalar mahsulot sifatini oshirish, xizmat ko'rsatish tizimini takomillashtirish va marketing strategiyalarini yangilash zaruriyatiga duch kelmoqda.

Avtomobil xaridorlarining ehtiyoj va kutishlari ham sezilarli darajada o'zgargan. Avvallari xaridorlar avtomobil tanlash jarayonida an'anaviy dilerlik markazlariga murojaat qilgan bo'lsa, hozirda ularning aksariyati xaridga doir qarorlarni internet orqali, raqamli manbalar asosida qabul qilmoqda. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, xaridorlarning 85–90 foizi avtomobil sotib olishdan oldin model, narx, konfiguratsiya va servis sharoitlarini onlayn o'rganadi. Bu esa avtomobil ishlab chiqaruvchilar va sotuvchilardan zamonaviy marketing konsepsiyalariga moslashishni, bozorning raqamli segmentida faol ishtirok etishni talab etadi.

Shuningdek, ekologik transport vositalariga bo'lgan talabning oshishi, elektr avtomobillar bozorining kengayishi, "aqlli avtomobillar" (smart cars) texnologiyasining jadal rivoji marketing strategiyalarining tubdan yangilanishiga olib kelmoqda. Endilikda iste'molchilar nafaqat texnik xususiyatlarga, balki avtomobilning ekologik samaradorligi, qulayligi, servis xarajatlari, xavfsizlik standartlari va brend obro'siga alohida e'tibor qaratmoqda.

Shu sababli kompaniyalar raqobatda ustunlikka erishish uchun mijozga yo'naltirilgan marketing, raqamli marketing texnologiyalari, innovatsion sotuv strategiyalari hamda brend qiymatini boshqarishga asoslangan konsepsiyalarni qo'llashga intilmoqda. Ushbu konsepsiyalar avtomobil savdosida samaradorlikni oshirish, mijozlar ehtiyojiga moslashtirilgan takliflar yaratish va bozor ulushini kengaytirishda muhim omil sifatida maydonga chiqmoqda.

Zamonaviy marketing yondashuvlaridan oqilona foydalanish nafaqat sotuv jarayonini optimallashtiradi, balki korxonaning raqobatbardoshligini mustahkamlaydi, mijozlar sadoqatini oshiradi va brendning bozor qiymatini yuqori darajada shakllantirishga imkon beradi. Shu bois avtomobil savdosida innovatsion va raqamli marketing konsepsiyalarining qo'llanilishini o'rganish bugungi kun ilmiy-amaliy tadqiqotlarining dolzarb yo'nalishlaridan biridir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Marketing nazariyasida "marketing konsepsiyasi" tushunchasi klassik tarzda Filipp Kotler va G. Armstrong tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, u bozorni aniq segmentlash, mijoz ehtiyojlarini chuqur o'rganish, integratsiyalashgan marketing faoliyati va uzoq muddatli rentabellik kabi ustunliklarga tayangan holda izohlanadi. Ushbu yondashuvga ko'ra, korxonaning barcha faoliyati mijoz nuqtayi nazaridan baholanishi lozim, ya'ni "mijoz markazda" tamoyili asosiy mezon hisoblanadi. Peter Druker va keyingi tadqiqotchilar ham marketingni butun biznesni mijoz ko'zi bilan ko'rish san'ati sifatida talqin qiladilar.

So'nggi yillarda zamonaviy adabiyotlarda "customer-centric marketing" yoki "mijozga yo'naltirilgan marketing" alohida konsepsiya sifatida shakllanib, raqobatbardosh bo'lish uchun korxonalar mijozlar bilan uzoq muddatli munosabatlarni rivojlantirishi, ularning individual ehtiyojlariga moslashtirilgan takliflar yaratishi zarurligi ta'kidlanadi. Aslan (2021) mijozga yo'naltirilgan yondashuvni iqtisodiy tizim, bozor tuzilmasi va texnologik o'zgarishlar sharoitida marketing konsepsiyasining yangi talqini sifatida ko'rib chiqadi.

Kotler tomonidan taklif etilgan "Marketing 4.0" va keyingi konsepsiyalar marketingni raqamli muhit, ijtimoiy tarmoqlar va mijozlarning faol ishtiroki bilan chambarchas bog'liq holda izohlaydi. Unga ko'ra, bozor sharoitida "mijoz boshqaradi, brend esa tinglaydi va moslashadi"; raqamli va an'anaviy kanallar o'zaro integratsiyalashgan bo'lishi, brend esa mijozni faqat xaridchiga emas, balki brend tarafdoriga aylantirishga intilishi kerak. Bunday yondashuv avtomobil savdosida ham dolzarb bo'lib, xaridorlar nafaqat mahsulot xususiyatlarini, balki kompaniyaning qadriyatlarini, ekologik mas'uliyati va servis madaniyatini ham inobatga olishini ko'rsatadi.

Avtomobil sanoati bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar raqamli transformatsiya jarayoni bu tarmoq uchun strategik ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi. Bauer (2018) hamda keyingi izlanishlarda avtomobil sanoatida raqamli mijozlar safarining (digital customer journey) shakllanishi, onlayn va offlayn nuqtalarning integratsiyasi, dilerlik tarmog'ining yangi roli batafsil o'rganilgan. So'nggi yillarda Germaniya avtomobil bozorida raqamlashtirishning mijozlar safariga ta'siri alohida tahlil qilinib, avtomobil ishlab chiqaruvchilar, dilerlar va iste'molchilar o'rtasidagi o'zaro aloqalar yangi texnologiyalar ta'sirida qayta shakllanayotgani aniqlangan.

Xalqaro tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, avtomobil xaridorlarining mutlaq ko'pchiligi xarid qilishdan avval internet orqali keng qamrovli izlanish olib boradi. Google va boshqa manbalar ma'lumotlariga ko'ra, bugungi kunda avtomobil xaridorlarining 90–95 foizi xarid qilishdan ilgari raqamli kanallardan (qidiruv tizimlari, brend



saytlari, avto-platformalar, video sharhlar) foydalanadi, ko'plab xaridorlar esa dilerlik markaziga borishdan oldin onlayn ravishda model, narx va konfiguratsiya bo'yicha qarorga keladi. Shu bilan birga, EY va boshqa tashkilotlarning tadqiqotlari dilerlik markazlari ahamiyati saqlanib qolayotganini, xaridorlarning sezilarli qismi yakuniy qarorni aynan salonda, test-drayv va jonli maslahatdan so'ng qabul qilishini ko'rsatadi. Bu esa onlayn va offlayn kanallarni uyg'unlashtirgan omnichannel marketing strategiyalarining zarurligini asoslaydi.

Raqamli marketingning avtomobil savdosiga ta'siri bo'yicha amaliy tadqiqotlar ham mavjud. Masalan, PwC tomonidan taqdim etilgan holat tahlillarida raqamli kompaniyalar uchun ma'lumotlarga asoslangan segmentatsiya, avtomatlashtirilgan reklama xaridlari va kanallar bo'yicha chastota boshqaruvi qo'llanilganda bosish ko'rsatkichlari 160 foizgacha oshgani, reklama "isrof"i kamaygani va marketing xarajatlari optimallashtirilgani qayd etilgan. Detecon, MSXI va boshqa konsalting kompaniyalari tadqiqotlarida esa sotuvdan keyingi xizmat ko'rsatishda raqamli mijozlar safarini optimallashtirish, onlayn servis bronlari, mobil ilovalar va shaxsiylashtirilgan takliflar orqali mijoz sadoqatini oshirish mexanizmlari yoritiladi.

Zamonaviy adabiyotlarda avtomobil sohasida egalikning alternativ modellari — lizing, qisqa muddatli ijaralar, avtomobilga obuna (car subscription) va keng ma'noda "mobilitat xizmati" (mobility as a service) konsepsiyalari ham faol o'rganilmoqda. Roland Berger, PwC, Fortune Business Insights va boshqa manbalarda keltirilgan prognozlarga ko'ra, avtomobilga obuna bozori tez sur'atlarda o'sib borayotgan bo'lib, bu modelning kengayishi ayniqsa yosh avlod va premium segment uchun dolzarb ekani ta'kidlanadi. Akademik manbalarda (Greifenstein va boshqalar) avtomobil obuna modellari "sharing economy" va "shared mobility" tizimlarining tarkibiy qismi sifatida talqin qilinib, bunday xizmatlarning iste'molchi xulq-atvori va innovatsion biznes modellarga ta'siri tahlil qilinadi. Bu konsepsiyalar marketing nuqtayi nazardan qaralganda, an'anaviy mulkchilikdan foydalanishga yo'naltirilgan qadriyatlar tizimiga o'tish jarayonini aks ettiradi.

Brend qiymati va mijoz sadoqati bo'yicha adabiyotlar ham avtomobil savdosida zamonaviy marketing konsepsiyalarining muhim tarkibiy qismini tashkil etadi. Kotler va boshqa mualliflar brendning bozor qiymati nafaqat sotuv hajmlariga, balki mijozlar bilan tuzilgan uzoq muddatli munosabatlar, xizmat sifatiga ishonch, kafolat va servis tizimi, shuningdek brendning ijtimoiy va ekologik mas'uliyati bilan belgilanadi, deb ta'kidlaydilar. Avtomotiv sohada bu masala xavfsizlik reytinglari, ekologik sertifikatlar, kafolat muddatlari, sadoqat dasturlari va xizmat ko'rsatish tarmog'i kengligi orqali namoyon bo'ladi.

Umuman olganda, mavjud adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, avtomobil savdosida zamonaviy marketing konsepsiyalarining rivojlanishi uchta asosiy yo'nalishda jamlanadi:

1. mijozga yo'naltirilgan va raqamli marketing konsepsiyalari;
2. raqamli mijozlar safari va omnichannel strategiyalar;
3. egalikning yangi modellari va brend qiymatini boshqarish.

Mazkur ilmiy yondashuvlar maqolada taklif qilinayotgan nazariy va amaliy xulosalar uchun metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot avtomobil savdosida zamonaviy marketing konsepsiyalarining qo'llanishini o'rganishga qaratilgan bo'lib, unda nazariy va amaliy manbalar asosida tahliliy yondashuv qo'llandi. Tadqiqotning nazariy poydevorini Kotler, Armstrong, Kartajaya, Setiawan kabi klassik va zamonaviy marketing nazariyalari, shuningdek digital marketing va mijozga yo'naltirilgan boshqaruv bo'yicha xalqaro ilmiy manbalar tashkil etdi.

Tahlil jarayonida ilmiy maqolalar, xalqaro konsalting kompaniyalari (McKinsey, PwC, Deloitte) hisobotlari, avtomobil kompaniyalarining rasmiy ma'lumotlari hamda ijtimoiy tarmoqlardagi marketing kompaniyalari kontent tahlil asosida o'rganildi. Bozor ishtirokchilari faoliyatini baholash uchun solishtirma tahlil va empirik kuzatishdan foydalanildi. Dilerlik markazlarining xizmat ko'rsatish jarayoni, mijozlar tajribasi, raqamli sotuv kanallari va sadoqat dasturlari amaliy jihatdan tahlil qilindi.

Tadqiqot ma'lumotlari ochiq statistik bazalar, kompaniyalar saytlaridagi ma'lumotlar va marketing bo'yicha real kontentdan olindi. Olingan natijalar zamonaviy marketing konsepsiyalarining avtomobil savdosidagi samaradorligini baholash, mijoz xulq-atvori va raqamli transformatsiya jarayonlarining ta'sirini aniqlash imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot davomida avtomobil savdosida qo'llanilayotgan zamonaviy marketing konsepsiyalarining amaliy samaradorligi chuqur o'rganildi. Mijozga yo'naltirilgan marketing, raqamli marketing texnologiyalari, innovatsion sotuv strategiyalari hamda brend qiymatini oshirishga qaratilgan faoliyatning bozordagi real natijalarga ta'siri tahlil qilindi. Olingan ma'lumotlar ushbu konsepsiyalardan samarali foydalanish avtomobil kompaniyalariga raqobatbardoshlikni oshirish, mijozlarni jalb qilish va ulardan foydalanish davriyligini uzaytirishda muhim omil ekanini ko'rsatdi.



Birinchidan, mijozga yo'naltirilgan marketing konsepsiyasining qo'llanishi xaridorlarning ehtiyoj va xulq-atvoriga moslashtirilgan takliflarni ishlab chiqishga imkon berdi. Individual konfiguratsiya, shaxsiylashtirilgan xizmat ko'rsatish, moliyaviy qulayliklar va mijoz tajribasini boshqarish kabi yondashuvlar xaridorning qaror qabul qilish jarayonini yengillashtirib, ular uchun qo'shimcha qulayliklar yaratdi. Tahlil jarayonida ushbu strategiyalarni qo'llagan dilerlik markazlarida test-drayvga yozilish ko'rsatkichlari, shuningdek qayta xarid (repeat purchase) darajasi sezilarli ravishda yuqori ekani aniqlandi. Mijozning real ehtiyojiga mos taklif berilishi brendga bo'lgan ishonchni mustahkamlagan asosiy omillardan biri bo'lib qayd etildi (1-rasm).



1-rasm Mijozni tushunish jarayoni¹

Ikkinchidan, raqamli marketing konsepsiyasi avtomobil sotuvining asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida namoyon bo'ldi. Raqamli qidiruv, SEO va SMM kampaniyalari, 3D konfiguratorlar, virtual test-drayvlar va onlayn savdo platformalari xaridorlarning informatsion izlanish bosqichini osonlashtirdi. Tahlil natijalariga ko'ra, yuqori sifatli raqamli kontentga ega brendlar dilerlik markazlariga tashriflar, test-drayvlar soni va yakuniy xarid ko'rsatkichlarida barqaror yuqori natijalarga erishdi. Bu esa raqamli kanallarning sotuv voronkasidagi ta'sirini kuchaytirdi va avtomobil tanlash jarayonini tezlashtirdi.

Quyida keltirilgan 2-rasmda avtomobil xarid qilish jarayonining raqamli bosqichlari aylana ko'rinishida tasvirlangan bo'lib, xaridorning qaror qabul qilishdagi uzluksiz harakati ifodalangan. Jarayon onlayn izlanishdan boshlanadi, bunda xaridor video sharhlar, 3D konfigurator va virtual test-drayv orqali dastlabki ma'lumotlarni yig'adi. Keyingi bosqichda u turli modellarni solishtirib, ular orasida mos variantni aniqlaydi. Shundan so'ng avtomobil konfiguratsiyasi shakllantiriladi va xaridor o'z ehtiyojiga mos texnik hamda dizayn parametrlarini tanlaydi. Konfiguratsiyadan so'ng narx tahlili amalga oshiriladi, bunda tanlangan modelning umumiy qiymati, kredit va lizing shartlari baholanadi. Yakuniy bosqichda xaridor mos variantni bron qiladi. Jarayonning aylana shaklda berilishi xaridorning ayrim bosqichlarga qaytishi yoki takroriy izlanishlar olib borishi mumkinligini anglatadi (2-rasm).



2-rasm Avtomobil onlayn xarid qilish jarayoni²


1 Muallif ishi
2 Muallif ishi



Uchinchi yo'nalish bo'yicha o'tkazilgan tahlil innovatsion sotuv strategiyalari zamonaviy xaridorlar ehtiyojiga eng mos keluvchi yechim ekanini ko'rsatdi. Onlayn shartnoma, elektron imzo, avtomobilni mijoz manziliga yetkazib berish xizmati, shuningdek obuna asosidagi foydalanish (Car Subscription) xizmatlari mijozlar uchun qulaylik, vaqt tejalishi va sotuv jarayonining soddalashtirishini ta'minladi. Elektr avtomobillar bo'yicha taqdimot marketingi esa ekologik omillarga e'tibor kuchayib borayotgan hozirgi bozorda yangi segmentni jalb qilishda sezilarli samaradorlik ko'rsatdi. Tahlillar shuni tasdiqladiki, ushbu innovatsion xizmatlarni taklif qilayotgan kompaniyalar bozorda tezroq o'sish sur'atiga ega.

To'rtinchi natija — brend qiymatini oshirish konsepsiyasining amaliy ta'siri kuchli ekanini ko'rsatdi. Kafolat muddatlarining kengaytirilishi, sifat bo'yicha reytinglardagi yuqori o'rinlar, sadoqat dasturlari va barqaror brend identifikatsiyasi mijozlarning emotsional va ratsional ishonchini kuchaytirdi. Aniqlanganki, brend obro'si yuqori bo'lgan kompaniyalar nafaqat yangi xaridorlarni jalb qiladi, balki mavjud mijozlarda yuqori darajadagi sadoqatni ham shakllantiradi. Servis sifati yuqori bo'lgan brendlarning qayta xarid ko'rsatkichlari ancha yuqori ekanini kuzatildi.

Keltirilgan 3-rasmda brend qiymatini shakllantirish jarayoni piramida ko'rinishida ifodalangan bo'lib, brendning mustahkamlanish bosqichlari pastki asosdan yuqoriga qarab izchil tarzda joylashtirilgan. Eng pastki qatlamda brendning asosiy tamoyillari turadi, ya'ni kompaniya imiji, qadriyatlar va bozordagi umumiy mavqei shakllanadi. Uning ustida sifat, xavfsizlik va servis kabi omillar joylashgan bo'lib, ular xaridor ishonchini shakllantiruvchi boshlang'ich mezonlar hisoblanadi. Keyingi bosqichda ishonch va kafolatlar bo'lib, mijozning avtomobil sifati va xizmat ko'rsatish tizimiga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi. Uning ustida faol va brend bilan muntazam aloqada bo'ladigan ishtirokchi mijozlar turadi. Piramidaning eng yuqori qismida esa sadoqat joylashgan bo'lib, brendga yuqori ishonch bildirib, qayta xarid qiluvchi va boshqalarga tavsiya qiluvchi mijozlarni ifodalaydi (3-rasm).



3-rasm Brend qiymati piramidas

Umuman olganda, tahlil jarayonida olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, mijozga yo'naltirilgan yondashuv, raqamli marketing vositalari, innovatsion sotuv strategiyalari va brend boshqaruvi birgalikda qo'llanganda avtomobil sotuvining samaradorligi keskin oshadi. Kompaniyalar aynan ushbu zamonaviy marketing konsepsiyalaridan foydalangan taqdirda bozorda raqobatbardosh ustunlikka ega bo'lmoqda, mijozlar oqimi kengaymoqda va brend sadoqati mustahkamlanmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari avtomobil savdosida zamonaviy marketing konsepsiyalarini qo'llash korxonalar raqobatbardoshligini oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini ko'rsatdi. Mijozga yo'naltirilgan yondashuv xaridor ehtiyojini chuqur anglash, ularga moslashtirilgan xizmat ko'rsatish va individual takliflar yaratish orqali mijozning brendga bo'lgan ishonchini kuchaytiradi. Raqamli marketing texnologiyalari esa xarid qilish jarayonini sezilarli darajada soddalashtirib, brendning onlayn ko'rinishchanligini oshiradi va sotuv voronkasining



samaradorligini kuchaytiradi. Innovatsion sotuv strategiyalari, xususan onlayn shartnoma, uyga yetkazib berish va obuna asosidagi foydalanish modellari zamonaviy xaridorlarga qulaylik yaratib, korxonaga yangi auditoriyalarni jalb qiladi. Brend qiymatini oshirishga qaratilgan choralar — kafolatlar, sifat reytinglari, servis sifati va sadoqat dasturlari — mijozlarda uzoq muddatli sadoqatni shakllantirib, qayta xaridlar ulushini oshiradi. Umuman olganda, ushbu barcha konsepsiyalarni birgalikda qo'llash avtomobil bozori ishtirokchilariga barqaror o'sish, brend obro'sining mustahkamlanishi va bozor ulushining kengayishiga xizmat qiladi.

Avtomobil savdosi bilan shug'ullanuvchi kompaniyalar uchun zamonaviy marketing konsepsiyalarini kengroq joriy etish tavsiya etiladi. Avvalo, mijozga yo'naltirilgan strategiyani chuqurlashtirish, xaridor ehtiyojlarini muntazam o'rganib borish va shaxsiylashtirilgan xizmatlar sonini ko'paytirish zarur. Raqamli marketing kanallarida faoliyatni kuchaytirish, brend sayti modernizatsiyalash, 3D konfigurator, virtual test-drayv kabi interaktiv vositalarni rivojlantirish ham sotuv samaradorligini sezilarli oshiradi. Sotuv jarayonlarini raqamlashtirish — onlayn shartnoma, elektron to'lovlar, masofaviy maslahat va uyga yetkazib berish xizmatlarini takomillashtirish — xarid jarayonini qulayroq va tezroq qiladi. Brend qiymatini mustahkamlash uchun kompaniyalar sifat va xavfsizlik standartlariga qat'iy amal qilishi, kafolat muddatlarini kengaytirishi va sadoqat dasturlarini rivojlantirishi lozim. Shuningdek, mijozlar bilan qayta aloqa tizimini kuchaytirish, servis xizmatlarining sifatini oshirish va xaridchilar fikr-mulohazalarini muntazam ravishda tahlil qilish tavsiya etiladi. Ushbu takliflar amaliyotga joriy etilganda kompaniyalar avtomobil bozorida barqaror natijalarga erishishga erishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Kotler F., Armstrong G. Marketing Principles. — New Jersey: Pearson Education, 2018.
2. Kotler F., Kartajaya H., Setiawan I. Marketing 4.0: Moving from Traditional to Digital. — New Jersey: Wiley, 2017.
3. Druker P. The Practice of Management. — New York: Harper Business, 2006.
4. Aslan I. Customer-Centric Marketing Concept and Its Strategic Role. // Journal of Marketing Research. — 2021.
5. Bauer H., et al. Digital Transformation in the Automotive Industry. — McKinsey & Company, 2018.
6. McKinsey & Company. The Automotive Consumer Journey in the Digital Age. — 2019.
7. PwC. Automotive Industry Trends: Digital Transformation and Market Shifts. — PwC Global Report, 2020.
8. Deloitte. Automotive Digital Retailing Study. — Deloitte Insights, 2021.
9. EY Report. Future of Automotive Retail and Consumer Preferences. — Ernst & Young, 2020.
10. J.D. Power. Vehicle Dependability Study Results. — J.D. Power Official Publication, 2023.
11. Euro NCAP. Vehicle Safety Ratings Annual Report. — 2022.
12. Roland Berger. The Future of Car Subscription Models. — Industry Study, 2021.
13. Fortune Business Insights. Mobility as a Service (MaaS) Market Analysis. — 2023.
14. Greifenstein M., et al. Shared Mobility and Customer Behaviour. // International Journal of Mobility Research. — 2020.
15. MSXI. Automotive Customer Experience and Service Performance Review. — MSXI Global, 2022.
16. Detecon Consulting. Customer Experience Optimization in Automotive Retail. — 2021.
17. Google Auto Retail Study. Understanding the Digital Car Buyer. — Google Research Center, 2020.
18. Chaffey D., Ellis-Chadwick F. Digital Marketing: Strategy, Implementation and Practice. — Pearson, 2019.
19. Kotler F., Keller K. Marketing Management. — Pearson, 2016.
20. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. Transport va avtomobil bozori bo'yicha yilnomalar. — Toshkent, 2022–2023.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
